

PAPER

RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Imomova Jasmina Yo'ldosh qizi^{1,*}

¹Qarshi Xalqaro Universiteti talabasi

* imomovajasmina6@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishining O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qilayotgani va bu jarayonlarning kelajagi tahlil qilinadi.

Key words: innovatsiya, 5G – aloqa, 3D – bosma, blokcheyn, sun'iy intellekt (AI), virtual, jamiyat indeksi (DESI), intensive, tendir, birja, treading, marketing, targeting.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi rivojlangan davlatlarda keng qo'llanishi haqida barchamiz xabardormiz. Raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiy faoliyat bo'lib, har kuni odamlar, bizneslar, qurilmalar orasida bog'lanishdir. Raqamli iqtisodiyot kirib borgan har bir jamiyat raqamli iqtisodiyotning foydasi qanchalik yuqori ekanligini yetarliycha tushinib yetishgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlar uchun ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida 2020- yil "Ilm- ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.[1]

Raqamli iqtisodiyot o'zi nima? Raqamli iqtisodiyot atamasi qachon paydo bo'lgan? bu atamaning kelib chiqishi? bu so'rovlar

hammamizga qiziq bo'lishi aniq albatta. Raqamli iqtisodiyot bu – yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarni yaratish va ularni kundalik hayotga taqdim etish orqali iqtisodiyotni faollik bilan oshirish bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi unchalik uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlangan. Nikolas Negroponte axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishining eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tish haqida gapirib o'tgan.[1]

Raqamli iqtisodiyot masofaviy to'lov imkoniyati: Virtual biznes va daromadlar topish mahsulot va hom ashyolarga online (virtual tarmoq) orqali buyurtma berish, yetkazish xizmati, tendir, birja, treading, marketing, targeting, reklama va boshqa ko'plab ijtimoiy faollik va undagi talab,

Compiled on: October 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Sustainability* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

taklif va ko'plab pul munosabatlarning vertual shakli umumiy ma'noda iqtisodiyotning ayni vertual va ijtimoy tarmoqdagi o'rni raqamli iqtisodiyot deb ataladi bunga MISOL: amazon. uzum. Yandeks, Pay me, Paynet va shu kabilar.[2]

Raqamli iqtisodiyotdan foydalanish keraksiz xarajatlarni keskin kamaytirish imkonini beradi. Bizga ma'lumki, mehnat xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish uchun sarflanadigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Raqamli iqtisodiyotda menejerlar, marketologlar va merchandayserlar tomonidan bajariladigan ishlar deyarli butunlay avtomatlashtirilgan va kompyuter texnologiyalariga yuklangan. Shu tufayli iqtisodiyotda katta samaradorlikka erishilmoqda. Tejalgan mablag'lar iqtisodiyotni yanada raqamlashtirishga yo'naltiriladi.[2]

Ma'lum bo'lishicha, davlat organlaridagi 700 dan ortiq axborot tizimining atigi 30 foizi "Elektron hukumat"ga ulangan. Davlat xizmatlari ko'rsatuvchi 80 ta bo'limdan faqat 27 tasi Davlat xizmatlari agentligi bilan integratsiyalashgan. Shu bois, vazirlik va idoralar rahbarlariga beriladigan mukofot to'lovlari miqdorini oshirish yoki ular faoliyatiga axborot texnologiyalarini integratsiyalashganlik darajasidan kelib chiqib, kamaytirishni nazarda tutuvchi yangi tartibni joriy etish vazifasi qo'yildi. Joriy yilga belgilangan vazifalar qatorida mahalliy optik tolali tarmoqni kengaytirish, maktabgacha ta'lim tizimida optik tolali aloqabilan qamrab olishni 41 foizdan 100 foizga, xalq ta'limi tizimida 40 foizdan 70 foizga oshirish belgilangan, sog'liqni saqlashda - 38 dan 100 foiz gacha Raqamli iqtisodiyotning quyidagi belgilari mavjud: yuqori darajadagi avtomatlashtirish, elektron hujjat almashinuvi, buxgalteriya hisobi va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyasi, elektron ma'lumotlar bazalari, CRM, ya'ni mijozlar bilan munosabatlar tizimi va korporativ tarmoqlar. Raqamli iqtisodiyot orqali bir qancha qulayliklarga ega bo'lamiz va bu iqtisodiy samaradorlikni oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, to'lovlar narxi pasayadi, tovar va xizmatlar to'g'risida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi, raqamli iqtisodiyotda tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyati ortadi va yana iste'molchilar fikrini tezda olish orqali, tovarlar va xizmatlar ularning

ehtiyojlarini qondiradi, istaklaridan kelib chiqib, tez rivojlanadi.[3]

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,2 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, 7-8 foiz o'rtacha optimal ko'rsatkich hisoblanadi, masalan, Buyuk Britaniyada - 12,4 foiz, Janubiy Koreyada - 8 foiz, Xitoyda - 6,9 foiz, Hindistonda - 5,6 foiz, Rossiyada esa - 2,8 foiz, Qozog'iston - 3,9 foiz. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasiga muvofiq, 2025-yilga qadar AKT xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5,0 foizga, 2030-yilga borib esa 10 foizga yetkazish rejalashtirilgan. [4] "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturining 138-bandida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturini ishlab chiqish to'g'risidagi qarori qabul qilinishi nazarda tutilgan edi. iqtisodiyotning real sektori, sog'liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa sohalar, "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturini tasdiqlash masalalari; elektron hukumatning texnik infratuzilmasini takomillashtirish; inson kapitalini rivojlantirish va kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish; davlat xizmatlarini raqamlashtirish va axborot ekotizimini rivojlantirish; davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, aholining elektron ishtiroki darajasini oshirish; axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot resurslari va tizimlarini himoya qilish; raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasida yagona vakolatli organi tayinlash, shuningdek Hukumat, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamli texnologiyalar va elektron hukumat masalalari bo'yicha rahbar o'rinbosari lavozimini joriy etish masalalari ko'rib chiqilmoqda.[4]

Xalqaro elektraloqa ittifoqining (XEI) hisobotiga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi eng rivojlangan davlatlar quyidagilar:

- Koreya Respublikasi ;
- Islandiya ;
- Daniya ;
- Shveytsariya ;
- Buyuk Britaniya ;
- Xitoy ;
- Shvetsiya ;

Gollandiya ;
Norvegiya ;
Yaponiya. [2]

Raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksi (DESI) ko'ra, eng rivojlangan raqamli iqtisodiyoti Skandinaviya mamlakatlari, Benelux, Buyuk Britaniya va Irlandiyadir.

Yevropa Ittifoqi aholisining 98 foizi Internet tarmog'idan, 84 foizi 4G tarmog'idan foydalanish huquqiga ega, 44 foizi esa asosiy raqamli ko'nikmalarga ega bo'lmaganlar qatoriga kiradi. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyotning ulushi 2010-yildan 2016-yilgacha 4,3 foiz dan 5,5 foiz gacha, rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida 3,6 foiz dan 4,9 foiz gacha o'sdi. "Katta yigirma" mamlakatlarida bu ko'rsatkich besh yil ichida 4,1 foiz dan 5,3 foiz gacha o'sdi. Yalpi ichki mahsulotda raqamli iqtisodiyot ulushi bo'yicha jahon rahbari Buyuk Britaniya-12,4 foiz. 2016-yilda e'lon qilingan Xalqaro ma'lumotlar korporatsiyasi tahlilchilarining tadqiqotiga ko'ra, raqamli transformatsiya texnologiyalarining butun dunyo global xarajatlari har yili 16,8 foizga o'sadi va 2019-yilga kelib 2,1 trln. AQSH dollarini tashkil etadi. Accenture konsalting kompaniyasining prognozlariga ko'ra, 2020-yilda raqamli texnologiyalardan foydalanish 1,36 trln. AQSH dollarini yoki dunyoning o'nlab yetakchi jahon iqtisodiyotlarining yalpi ichki mahsulotidagi YaIMning 2,3 foizini tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarning yalpi ichki mahsuloti "raqamli iqtisodiyot" hisobiga 1,8 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlar YaIM esa 3,4 foizga o'sadi. Raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishi bir qator ilg'or texnologiyalarning muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi.[2]

Bunday beshta texnologiyani ajratib ko'rsatish mumkin:

5G - aloqa;
3D - bosma;
blokcheyn ;
sun'iy intellekt (AI) ;
virtual haqiqat.

Sanab o'tilgan texnologiyalar rivojlangan mamlakatlarning strategik hujjatlarida belgilangan eng muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biridir. Raqamli iqtisodiyot kirib bormagan va kerak bo'lmaydigan soha yo'q fikrimcha, bugungi

kun innovatsiya va texnologiyalar, shaffoflik, tezkorlik va ilg'orlikni talab qiladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi shaffoflik aniqlik va qogozbozlikdan holi, korrupsiyaga qarshi holatda jadal rivojlanadi.[2]

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi faqatgina ichki munosabatlardagina qolmasdan davlatning tashqi aloqalarini tezkor va sezilarli sur'atlarda rivojlanishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotning tarmoq va sohalardagi muammolarini soha mutaxassisleri aniqlab, raqamlashtirish orqali ularni bararaf eta oladilar. Bunda ta'lim tizimida har bir tarmoq va soha kesemida information texnologiyalar mutaxassisligi bo'yicha alohida kurs tashkil etilib, maxsus dastur asosida o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali 2022yil 5son (Shodmonkulova Dilnoza Abdusatorovna)
2. G'.M.PORSAEV, B.SH.SAFAROV, D.Q.USMANOVA "Raqamli Iqtisodiyot asoslari" Toshkent 2020
3. B.A.BEGALOV, M.K.ABDULLAYEV "Raqamli iqtisodiyot" Toshkent 2023
4. Internet tarmoqlari google qidiruv tizimidan foydalanildi. Djulmatova S. R. Features of reforming the digital economy in uzbekistan. – 2022.
5. (<https://media.neliti.com/media/publications/401726-none-44ea1d49.pdf>)